Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	

TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV, ESTETIK VA IJODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

UDK 373.2.015.31:75

Shaymuradov Taxir Zamanovich

Guliston davlat universiteti,

"Amaliy san'at va dizayn" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ranglarni farqlash, shakl va nisbatlarni idrok etish, shuningdek, yorug'–soya munosabatlarini anglash bolalarning vizual idrokini, fazoviy tafakkurini hamda muammoni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarida qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar va muntazam amaliy faoliyat bolalarning ijodiy salohiyatini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda estetik didini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ota-ona va pedagoglarning qo'llab-quvvatlashi bolalarda ijodiy tashabbusni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, maktabgacha yoshdagi bolalar, ijodiy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, estetik did, vizual idrok, pedagogik yondashuv.

Abstract: This article analyzes the influence of fine arts activities on the cognitive, aesthetic, and creative development of preschool children. The results of the study indicate that the ability to distinguish colors, perceive shapes and proportions, and understand the relationships between light and shadow significantly enhances children's visual perception, spatial thinking, and problem-solving abilities. Pedagogical approaches applied in art education, as well as regular participation in creative activities, contribute to the development of children's creative potential, independent thinking, and aesthetic perception. Moreover, the support and encouragement provided by parents and educators play an important role in fostering children's creative initiative and motivation for artistic expression.

Key words: fine arts, preschool children, creative development, cognitive development, aesthetic perception, visual perception, pedagogical approach.

Аннотация: В статье научно анализируется влияние занятий изобразительным искусством на когнитивное, эстетическое и творческое развитие детей дошкольного возраста. Результаты исследования показывают, что различение цветов, восприятие формы и пропорций, а также понимание взаимосвязи света и тени способствуют развитию визуального восприятия, пространственного мышления и способности решать проблемы у детей. Педагогический подход и систематические занятия изобразительным искусством способствуют развитию творческого потенциала детей, формированию эстетического вкуса и навыков самостоятельного мышления. Кроме того, поддержка со стороны родителей и педагогов играет важную роль в формировании и развитии творческой инициативы у детей.

Ключевые слова: изобразительное искусство, дети дошкольного возраста, творческое развитие, когнитивное развитие, эстетический вкус, визуальное восприятие, педагогический подход.

KIRISH

Inson dunyoga kelgan dastlabki lahzalardan boshlab uning sezgi tizimlari, ayniqsa ko'rish analizatori tashqi muhitni anglash va idrok etish jarayonida faol ishtirok eta boshlaydi. Bola asta-sekin ranglarni ajratish, ularni solishtirish hamda atrofdagi predmetlarning shakli va o'lchamlarini farqlashni o'rganadi. Ayniqsa maktabgacha yosh davrida bolalarda rang-barang tasvirlar, yorqin detallar hamda turli vizual stimullarga nisbatan katta qiziqish kuzatiladi. Bu holat bolaning sezgi-idrok tizimi, miya faoliyatining vizual korteks qismi va umumiy kognitiv jarayonlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik bilan izohlanadi ^[1;12]. Ranglarni farqlash, shakl, nisbat va kompozitsiyani sezish qobiliyatining rivojlanishi bolada tasviriy faoliyatga dastlabki moyillikni shakllantiradi. Shu bilan birga, ushbu jarayon estetik didning paydo bo'lishiga, go'zallikni anglash hissining rivojlanishiga hamda ijodiy tafakkur asoslarining shakllanishiga muhim zamin yaratadi.



Pedagogik kuzatishlar va amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab bolalar o'zlarining ilk tasviriy tajribalarini qog'ozda emas, balki uy devorlari, stol yuzasi yoki boshqa bevosita yuzalarda ifodalashga intiladilar. Bunday holat bolalarning tasavvur erkinligi, fantaziyasining boyligi hamda dunyoni hech qanday cheklovlarisiz qabul qilish xususiyatini aks ettiradi. Aynan shu jarayonda ota-onalar va pedagoglarning yondashuvi katta ahamiyat kasb etadi. Agar bola "sen rassom bo'lmaysan", "buni chizma" kabi salbiy munosabat yoki tanqidiy iboralar bilan to'qnash kelsa, uning san'atga bo'lgan qiziqishi pasayishi, ichki motivatsiyasi susayishi hamda ijodiy tashabbusi cheklanishi mumkin ^[3:4]. Natijada bola o'z fikrini erkin ifodalashdan tortinadi va tasviriy faoliyatga nisbatan qiziqish asta-sekin kamayadi. Aksincha, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhit yaratilganda bolada ijodiy faollik ortadi, mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi hamda uning vizual-tasviriy ko'nikmalari barqaror shakllana boshlaydi.

Statistik ma'lumotlar ham maktabgacha yosh davrida bolalarning aksariyati tasviriy faoliyatga yuqori qiziqish bildirishini tasdiqlaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, ushbu yosh guruhidagi bolalarning qariyb 80–90 foizi rasm chizish, ranglar bilan tajriba qilish hamda tabiat yoki atrof-muhitdagi obyektlarni tasvirlashga intiladi ^[5:128]. Rasm chizish jarayonida bola nafaqat tasvir yaratadi, balki predmetlar va hodisalar haqida o'z tasavvurini shakllantiradi, ularni ongida modellastiradi va asta-sekin abstrakt fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan tasviriy faoliyat bolaning tafakkuri, tasavvuri va idrok jarayonlarini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Biroq bolalarning san'atga bo'lgan tabiiy qiziqishi har doim ham barqaror saqlanib qolmaydi. O'sish jarayonida oilaviy muhit, jamiyatdagi stereotip qarashlar, shuningdek, faqat utilitar foydaga yo'naltirilgan qadriyatlar ta'siri natijasida ijodiy faoliyatga e'tibor kamayishi mumkin. Bunday sharoitda bolaning ijodiy erkinligi cheklanadi, tafakkur doirasi torayadi va o'z-o'zini ifodalash imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmay qolishi ehtimoli ortadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi tasviriy san'at mashg'ulotlarining bolalarning kognitiv, estetik, emotsional hamda ijodiy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'sirini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, pedagogik muhitni to'g'ri tashkil etish hamda ota-onalar tomonidan qo'llab-quvvatlovchi yondashuvni shakllantirish orqali bolalarning ijodiy salohiyatini oshirish imkoniyatlarini o'rganish ham tadqiqotning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Olingan natijalar bolalar ta'limida tasviriy san'atning ahamiyatini chuqurroq anglashga, shuningdek, ijodiy tafakkur rivojlanishining samarali pedagogik mexanizmlarini aniqlashga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bolalarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishi, ularning ijodiy salohiyati hamda kognitiv rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik usullardan foydalanildi. Jumladan, pedagogik kuzatuv metodi orqali bolalarning rasm chizish va boshqa vizual faoliyat turlari jarayonidagi xulq-atvori, ranglarni tanlash uslubi, shakl va nisbatlarni qog'oz yuzasida joylashtirish ko'nikmalari hamda mustaqil ijodiy qaror qabul qilish jarayonining rivojlanish dinamikasi tizimli ravishda qayd etildi. Ushbu kuzatuvlar bolalarning tasviriy faoliyatdagi individual xususiyatlarini aniqlashga va ularning ijodiy tafakkuri qanday shakllanib borayotganini tahlil qilishga imkon berdi. Shuningdek, tadqiqot davomida tahlil va sintez metodlari ham keng qo'llanildi. Mazkur usullar yordamida bolalarning ijodiy faoliyatidagi o'ziga xos jihatlari, ularning tasviriy faoliyatga bo'lgan munosabati va rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, ushbu jarayonlarni mavjud nazariy qarashlar bilan solishtirish imkoniyati yaratildi. Natijada bolalarning tasviriy san'atga oid ko'nikmalari va tasavvurlarining shakllanish jarayoni ilmiy-nazariy asosda talqin qilindi.

Bundan tashqari, qiyosiy tahlil usuli bolalarning turli yosh bosqichlari hamda ijtimoiy muhitlarda shakllangan tasviriy faoliyatini o'zaro taqqoslash imkonini berdi. Ushbu tahlil orqali san'at pedagogikasiga oid nazariy qarashlar, jumladan, shakl, nisbat, yorug'-soya, kompozitsiya va harakat qonuniyatlariga amal qilish zarurati chuqurroq o'rganildi. Vizual estetika tamoyillari hamda tasviriy san'atda kompozitsion uyg'unlikni ta'minlovchi omillar ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida tarixiy manbalar hamda mashhur rassom va pedagoglarning amaliy tajribalariga ham murojaat qilindi. Masalan, rus rassomi va pedagogi D. N. Kardovskiy tasviriy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxs shakl, nisbat, yorug'lik va predmetlarning tabiiy xususiyatlarini ifodalovchi qonuniyatlarga qat'iy rioya qilishi zarurligini ta'kidlagan ^[7:3]. Uning fikriga ko'ra, tasviriy san'atda muvaffaqiyatga erishish uchun nazariy bilimlar bilan bir qatorda muntazam amaliy mashg'ulotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarixiy manbalarda yosh ijodkor Odoardo Fioletti haqida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. U Venedik shahrida ta'lim olayotgan davrida mashhur rassom Tintoretto tomonidan berilgan "Chiz va yana chiz" degan maslahatga amal qilgan. Bu misol ijodiy mahoratni rivojlantirishda muntazam mashq, izlanish va sabr-toqatning naqadar muhim ekanini ko'rsatadi ^[2:45]. Bunday tajribalar tasviriy san'at ko'nikmalari asta-sekinlik bilan, bosqichma-bosqich shakllanishini va uzluksiz amaliy faoliyat orqali takomillashishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida qo'llanilgan ushbu metodlar orqali to'plangan ma'lumotlar ishning metodologik asosini tashkil etdi. Ular bolalarning san'at faoliyatidagi xatti-harakatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning ijodiy salohiyati hamda kognitiv rivojlanish darajasini baholash imkonini berdi. Shu bilan birga, mazkur metodologik yondashuv bolalarning vizual ijodiy faoliyatidagi individual xususiyatlarni aniqlash, shuningdek, ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish uchun muhim amaliy tavsiyalar berishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, pedagogik kuzatuv va qiyosiy tahlil natijalari bolalarning ijodiy faolligi hamda estetik didining shakllanishi ko'plab omillarga – yosh davri xususiyatlari, oilaviy muhit, tarbiyaviy yondashuv va ta'lim muassasalarida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlarga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Ushbu omillarni chuqur o'rganish va ilmiy asosda tahlil qilish bolalarda tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishni rivojlantirish hamda ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning vizual idrokini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanini ko'rsatdi. Xususan, bunday mashg'ulotlar bolalarda ranglarni farqlash, shakllarni aniqlash va ularni o'zaro uyg'un holda tasvirlash ko'nikmalarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ranglarni ongli ravishda tanlash, ularni kompozitsion jihatdan moslashtirish hamda turli rang uyg'unliklarini yaratish jarayoni vizual tafakkurni faollashtiradi, estetik didni rivojlantiradi va tasviriy tafakkur bilan bir qatorda analitik fikrlash qobiliyatini ham mustahkamlaydi ^[6:65]. Shu jihatdan tasviriy faoliyat bolalarning sezgi-idrok tizimini boyitib, ularning ijodiy tafakkurini shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Masalan, bolalarning qo'llarini bo'yog'ga botirib, qog'oz yoki boshqa yuzalarda turli shakllar va tasvirlar yaratishi sensor-motor koordinatsiyaning rivojlanishiga yordam beradi. Bunday faoliyat jarayonida bola qo'l harakati, rang va shakl o'rtasidagi bog'liqlikni his qiladi hamda real tasvir va fantaziya elementlarini birlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada bolalarda tasavvur kengayadi, ijodiy yondashuv shakllanadi va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyati rivojlanadi ^[4:2]. Bundan tashqari, shakl va nisbatlarni to'g'ri joylashtirish, kompozitsion elementlar o'rtasidagi uyg'unlikni saqlash hamda rang muvozanatini anglash bolalarda fazoviy tafakkur va fazoviy muvozanat hissining shakllanishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ularning matematik va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlaydi hamda analitik tafakkurni rivojlantiradi ^[5:129].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar tasviriy san'at mashg'ulotlariga muntazam jalb etilganda, ular nafaqat vizual idrok va estetik didni rivojlantiradi, balki muammoni hal etish, mustaqil fikr bildirish hamda qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham sezilarli darajada mustahkamlaydi. Ayniqsa, ijodiy faoliyat jarayonida bolalar mustaqil ravishda rang tanlash, kompozitsiyaning shakllantirish va tasviriy yechimlar topish orqali o'z ijodiy salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik yondashuv natijalari ham muhim xulosalarni ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ijobiy va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratilgan guruhlarda bolalarning ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Aksincha, haddan tashqari nazorat, keskin tanqid yoki salbiy baholash bolalarda ijodiy tashabbusning pasayishiga va tasviriy faoliyatga qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin ^[8:6]. Shu sababli ota-onalar va pedagoglarning rag'batlantiruvchi hamda qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolalarning san'atga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish va ularning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishida muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, amaliy mashg'ulotlarning muntazamligi ham muhim pedagogik omil sifatida e'tirof etildi ^[13]. Ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirishda doimiy mashq va izchil faoliyat katta ahamiyatga ega. Masalan, tarixiy manbalarda keltirilishicha, yosh rassom Odoardo Fiolettiga mashhur rassom Tintoretto tomonidan berilgan "Chiz va yana chiz" degan maslahat ijodiy mehnatning uzluksizligi va muntazam mashqning ustuvorligini ifodalaydi ^[2:45]. Bu misol tasviriy san'at ko'nikmalarining bosqichma-bosqich rivojlanishini va ijodiy mahoratning muntazam mashg'ulotlar orqali takomillashib borishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bolalar doimiy ravishda tasviriy san'at mashg'ulotlarida qatnashganida, ularning vizual ko'nikmalari, kompozitsion tafakkuri hamda ijodiy mustaqilligi sezilarli darajada rivojlanadi. Bundan tashqari, tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning estetik didini boyitadi, hissiy intellektini rivojlantiradi va madaniy merosga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantiradi. San'at asarlari bilan tanishish jarayonida bolalar go'zallikni anglash, tarixiy va madaniy qadriyatlarni tushunish hamda tabiat va atrof-muhitga nisbatan estetik munosabat bildirish ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning shaxsiy dunyoqarashini kengaytiradi, ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarini boyitadi ^[11:219].

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning nafaqat vizual va estetik rivojlanishiga, balki kognitiv, emotsional va ijodiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Bolalarning ranglar, shakllar, nisbatlar va yorug'-soya munosabatlarini anglash qobiliyati, fazoviy tafakkuri hamda mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlangan. Shu bilan birga, to'g'ri tashkil etilgan pedagogik yondashuv va muntazam amaliy mashg'ulotlar bolalarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etish va rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning rivojlanish jarayonida ko'p qirrali pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, ushbu faoliyat turi bolalarning nafaqat vizual idrokini va estetik tasavvurini, balki umumiy kognitiv rivojlanishini ham sezilarli darajada qo'llab-quvvatlaydi. Ranglar, shakllar va nisbatlarni idrok etish jarayoni miya faoliyatining tahliliy hamda sintezlovchi mexanizmlarini faollashtirib, muammolarni hal etish, mustaqil qaror qabul qilish va ijodiy yechimlar topish kabi muhim intellektual ko'nikmalarning shakllanishiga yordam beradi ^[6:65]. Shu bilan birga, bolalar tasviriy san'at asarlari, vizual materiallar hamda turli badiiy namunalar bilan tanishish orqali go'zallikni anglash va uni qadrlashni o'rganadilar. Bu jarayon ularning madaniy va tarixiy merosni tushunishiga, shuningdek, estetik didi hamda shaxsiy dunyo-qarashining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada bolalarda san'at va madaniyatga nisbatan qiziqish ortib, ularning ijtimoiy va madaniy kompetensiyalari ham boyib boradi ^[11:219].

Muhokama jarayonida olingan ma'lumotlar pedagogik yondashuv bolalarning ijodiy salohiyatini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Rag'batlantiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti mavjud bo'lgan guruhlarda bolalarning san'atga bo'lgan qiziqishi yuqori darajada saqlanib qoladi, ular o'z fikrini erkin ifodalashga va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qilishga intiladilar. Aksincha, haddan tashqari nazorat, salbiy baholash yoki ijodiy faoliyatga qo'yilgan cheklovlar bolalarda tashabbusning pasayishiga hamda tasviriy faoliyatga bo'lgan qiziqishning susayishiga olib kelishi mumkin ^[8:6]. Shu sababli ota-onalar va pedagoglarning pedagogik pozitsiyasi bolalar faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot jarayonida amaliy mashg'ulotlarning muntazamligi ham alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tasviriy faoliyat bilan doimiy shug'ullanish bolalarning badiiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi va ularning ijodiy tafakkurini izchil rivojlantiradi. Masalan, tarixiy manbalarda yosh rassom Odoardo Fiolettiga mashhur rassom Tintoretto tomonidan berilgan "Chiz va yana chiz" degan maslahat ijodiy mehnatning uzluksizligi va muntazam mashqning zarurligini yaqqol ifodalaydi ^[2:45].

Tadqiqot natijalari ham shuni tasdiqladiki, tizimli ravishda tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar bolalarning vizual idrokini, kompozitsion tafakkurini hamda ijodiy mustaqilligini sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, tasviriy san'at mashg'ulotlari bolalarning estetik didini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning hissiy intellektini ham boyitadi. Ranglar, shakllar va kompozitsiyalar bilan ishlash jarayonida bolalar rang uyg'unligini his qilish, shakllar muvozanatini anglash va yorug'-soya effektlarini tushunishni o'rganadilar. Bu esa tasviriy tafakkur jarayonlarini yanada boyitib, ijodiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi ^[7:4].

Natijalarni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bolalarning tasviriy san'at faoliyatidagi muvaffaqiyati ularning kognitiv, emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir ^[10:4]. Shu sababli ta'lim jarayonida tasviriy san'at mashg'ulotlarini tizimli va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik yondashuvni optimallashtirish, bolalarda ijodiy rag'batni kuchaytirish hamda amaliy faoliyatni muntazam yo'lga qo'yish ularning shaxsiy va ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga yordam beradi ^[12:439]. Shuningdek, zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali bolalarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Umuman olganda, olib borilgan muhokama va tahlillar tasviriy san'at bolalarda ijodiy erkinlikni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda vizual-tasviriy tafakkurni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi. Ranglar, shakllar, nisbatlar va yorug'-soya munosabatlarini anglash jarayoni bolalarning fazoviy tafakkuri va tasviriy ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bilan birga, to'g'ri tashkil etilgan pedagogik yondashuv va muntazam amaliy mashg'ulotlar bolalarning ijodiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ynaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari tasviriy san'at mashg'ulotlarining bolalarning ijodiy, kognitiv va estetik rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynashini tasdiqlaydi ^[5:129]. Bolalar maktabgacha yoshdan boshlab ranglarni ajratish, shakl va nisbatlarni idrok etish, yorug'-soya munosabatlarini tushunish kabi vizual ko'nikmalarni shakllantiradi. Shu jarayonlar ularning fazoviy tafakkuri, mantiqiy fikrlash qobiliyati va muammoni hal etish ko'nikmalarini mustahkamlaydi ^[6:65]. Tasviriy san'at bolalarda mustaqil ijodiy qaror qabul qilishni rag'batlantiradi, fantaziyani rivojlantiradi va san'atga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Pedagogik va ota-ona yondashuvi bunda muhim ahamiyatga ega: rag'batlantiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi muhit bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, aksincha, cheklovlar va salbiy baholar ijodiy tashabbusning pasayishiga olib keladi ^[3:7; 8:6]. Shu nuqtai nazardan, san'at mashg'ulotlarini tashkil etishda ijobiy pedagogik muhit yaratish zarur ^[9].

Amaliy mashg'ulotlarning muntazamligi va tizimliliigi bolalarning tasviriy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, yosh rassom Odoardo Fiolettiga Tintoretto tomonidan berilgan "Chiz va yana chiz" degan maslahat ijodiy mehnat va muntazam mashqning ustuvorligini ta'kidlaydi ^[2:45]. Shu asosda, bolalar muntazam

ravishda san'at mashg'ulotlarida ishtirok etishi ularning vizual idrokini, kompozitsion tafakkurini va ijodiy mustaqilligini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, tasviriy san'at bolalarda estetik didni rivojlantiradi, hissiy intellektni oshiradi, tabiat va atrof-muhitni anglash qobiliyatini shakllantiradi, madaniy va tarixiy merosni qadrlashni o'rgatadi. Shu orqali bolalar shaxsiy dunyoqarashini kengaytiradi, ijtimoiy ko'nikmalarini boyitadi va ijodiy tafakkur darajasini oshiradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at mashg'ulotlarini tizimli va innovatsion pedagogik yondashuv bilan uyg'unlashtirish bolalarning ijodiy, kognitiv va estetik rivojlanishini maksimal darajada qo'llab-quvvatlaydi. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar san'at mashg'ulotlarida rag'batlantiruvchi, erkin va ijodiy jihatdan qulay muhit yaratishi, bolalarning mustaqil fikrlash va ijodiy tashabbusini rag'batlantirishi lozim. Natijada bolalar nafaqat san'atni qadrlashni o'rganadi, balki go'zallikni his etish, estetik didni rivojlantirish va boy madaniy-hissiy tajribaga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, tasviriy san'at ularning shaxsiy va ijtimoiy tafakkurini kengaytiradi, ijodiy mustaqillikni rivojlantiradi va kelajakda murakkab vazifalarni ijodiy yondashuv orqali hal qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Umuman olganda, tasviriy san'at bolalarning shaxsiy, kognitiv va estetik rivojlanishida muhim vosita bo'lib, ularning ijodiy salohiyatini ochish, mustaqil qaror qabul qilish va erkin tafakkurini rag'batlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababli pedagoglar va ota-onalar bolalarni san'atga jalb qilishda qo'llab-quvvatlovchi va ijodiy jihatdan qulay muhit yaratishga intilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vasari G. (1996). The Lives of the Most Excellent Painters, Sculptors, and Architects. Dover Publications.
2. Yusupova Shoxista Alimjanovna. (2025, октябрь 21). Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda kompozitsiyaning pedagogik ahamiyati. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17407745>.
3. Nusharov Bobir Bolbekovich. (2025, октябрь 23). O'zbekiston yoshlarini milliy madaniyat va san'at orqali tarbiyalash istiqbollari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17421764>.
4. Jumaboev N. P. The Moral, Aesthetic And Ecological Views Of The Eastern Intellectuals About Education Issues.
5. Ibadullaeva, Zarifa, and Nabi Jumaboev. "Uzbek National Art And Its Schools." Журнал академических исследований нового Узбекистана 2.2 (2025): 127-130.
6. Pardaboevich, Jumaboev N., et al. "The Main Tasks of Fine ARTS in the Educational Process." International Journal on Orange Technologies, vol. 3, no. 5, 2021, pp. 64-67.
7. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Development Of Creative Competencies As The Foundation Of Professional Growth For Visual Arts Teachers. Zenodo." 2025,
8. Zamanovich S. T. The Role Of Fine Arts Classes In Developing Creative Potential In Children //Shokh Library. – 2025. – T. 1. – №. 13.
9. Yorlaqova Malika Ahmad qizi/Jumaboyev Nabi Pardaboyevich. (2025). Sirdaryo viloyatining dehqonchilik hayoti zamonaviy o'zbek tasviriy san'atida badiiy talqin etilishi. iqro indexing, 18(01), 1058-1061. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/16470>.
10. Xusnidin o'g'li, Xatamjonov Islombek, and Jumaboyev Nabi Pardaboyevich. "Kompozitsiya fanida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari." Conference Of Innovative Horizons In Science & Engineering. Vol. 1. No. 2. 2025.
11. Pardaboevich, Jumaboyev Nabi. "The Application Of Eastern Philosophical Aesthetic Concepts In Artistic Education And Their Interpretation In Pedagogical Research." Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari 14.01 (2025): 218-222.
12. Alikulovich B. A. Development of Professional Competence of the Pedagogue through Visual Means //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2023. – T. 1. – C. 438-442.
13. Babadjanov A. X. Tasviriy san'at va fiziognomika fan integratsiyasi: portret janri misolida //Inter education & global study. – 2025. – №. 3. – C. 369-378.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.